

Begona o'tlarning zararli xususiyatlari

Sulliyeva Suluv Xurramovna -Termiz davlat universiteti Botanika kafedrasidaotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jalik ekinlari orasida uchraydigan begona o'tlarning soni, ularning zararli xususiyatlari, o'sish sharoitlari, madaniy ekinlarga salbiy ta'siri va ularga qarshi kurashish choralarining ahamiyati yoritilgan. Ilmiy manbalar asosida boshqoli don ekinlari, xususan, kuzgi bug'doy dalalarida begona o'tlarning oziqa elementlarini madaniy ekinlarga nisbatan ko'proq o'zlashtirishi, yorug'lik va joyni band etib, hosildorlikni sezilarli darajada kamaytirishi isbotlangan. Begona o'tlarning serurug'ligi, chidamliligi va tez tarqalish xususiyatlari ularni yo'q qilishni murakkablashtiradi. Shu sababli, agrotexnik va kimyoviy choralar orqali ularni nazorat qilish dehqonchilikda muhim masala sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: Begona o'tlar, kuzgi bug'doy, boshqoli don ekinlari, hosildorlik, oziqa elementlari, zarar, kimyoviy kurash, agrotexnika.

Аннотация: В статье рассматриваются количество, вредоносные особенности и биология сорняков, произрастающих среди сельскохозяйственных культур, а также их влияние на урожайность и необходимость борьбы с ними. На основе научных данных установлено, что сорняки, особенно в посевах озимой пшеницы, поглощают больше питательных веществ, чем культурные растения, затеняют их и значительно снижают урожайность. Высокая семенная продуктивность, устойчивость к неблагоприятным условиям и быстрая распространённость делают сорняки особо опасными. Поэтому борьба с ними посредством агротехнических и химических мероприятий является одной из приоритетных задач земледелия.

Ключевые слова: Сорняки, озимая пшеница, зерновые культуры, урожайность, питательные вещества, вред, химическая борьба, агротехника.

Harmful Characteristics of Weeds

Sulliyeva Suluv Xurramovna – Associate Professor of the Department of Botany,
Termiz State University

Annotation: This article examines the types, harmful characteristics, and distribution of weeds found among agricultural crops, focusing on their negative impact on crop yields and the importance of weed control measures. Scientific sources confirm that weeds in cereal crops, especially winter wheat, absorb more nutrients than cultivated plants, block light, and significantly reduce yields. Their high seed production, resilience to adverse conditions, and rapid spread make weed control particularly challenging. As a result, both agronomic and chemical weed control methods are considered essential components of effective crop management.

Keywords: Weeds, winter wheat, cereal crops, yield, nutrients, damage, chemical control, agronomic practices.

Begona o‘tlarning qishloq xo‘jalik ekinlari orasida 200 tadan 400 tagacha turi uchrab, suv va oziq moddalarni madaniy ekinlarga nisbatan ko‘proq o‘zlashtirishi, soya qilishi, hosilni yig‘ishtirib olishga xalaqit berishi bilan birga serurug‘ligi, noqulay sharoitlarga chidamliligi, tez ko‘payishi va boshqa xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

V.A.Zaxarenko ma‘lumotlari bo‘yicha begona o‘tlar boshqoli don ekinlari orasida rivojlanib, don hosildorligini 30-40% gacha pasayib ketishiga sababchi bo‘ladi. S.A.Kott tekshirishlaridan ma‘lum bo‘lishicha, ekinzorlar orasida 400 dan ortiq zararli va zaharli begona o‘tlar uchrab nafaqat madaniy ekinlarga, balki odam va hayvonlarga ham katta zarar yetkazadi. R.Danilov, P.P.Xolmanov, V.P.Shashkov, V.S.Zuza boshqoli don ekinlari dalasida begona o‘tlarning erkin rivojlanishi uchun qulay sharoit bo‘lishining sababi, bunday ekinlarning o‘sishi va rivojlanishi jarayonida ishlov berilmasligi bo‘lib, katta zarar yetkazishini aniqlagan. Mualliflarning ma‘lumotlari bo‘yicha boshqoli don ekinlari orasida rivojlangan paxtatikon begona o‘ti har gektar yerdan 140 kg azot, 120 kg fosfor va 30 kg kaliy o‘zlashtirsa, kuzgi bug‘doyning don hosildorligi 16 s/ga, somoni 24 s/ga bo‘lganda

45 kg azot, 21 kg fosfor va 30 kg kaliyni o'zlashtirishini yozadi, ya'ni, paxtatikon bug'doyga nisbatan azotni 3 hissa, fosforni esa 5 hissa ko'p o'zlashtirishini aniqlagan.

A.N.Kiselyov ma'lumotlari bo'yicha boshqoli don ekinlari orasida begona o'tlar keng tarqalgan bo'lsa, unga mutanosib holda kasalliklar va hashoratlar bilan zararlanish ortadi. Masalan, yovvoyi sulida sariq dog' kasalligi, ko'paysa raygrasda sariq virus kasalligi ko'payadi.

Latviya sharoitida ham kuzgi bug'doy dalalarida begona o'tlar juda ko'p bo'lib, ularga qarshi kurashilmasa, har xildagi kasalliklar va hashoratlar ko'payib ketib, don hosili barbod bo'ladi.

Mamlakatimiz sharoitida ekinzorlar orasida rivojlanadigan begona o'tlar va ularga qarshi kurashish ishlari 1960-1970 yillarda boshlangan. Boshqoli don ekinlari dalalaridagi begona o'tlarga qarshi kurashish ishlari dastlab lalmikor yerlarda ko'proq o'rganilgan. Mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarida keng tarqalgan begona o'tlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni S.N.Rijov va I.F.Sukachlar tomonidan yaratilgan darslikdan olish mumkin. Ushbu olimlarning yozishicha, tuproqda suv va oziqa elementlar qancha ko'p bo'lsa, begona o'tlar shuncha tez rivojlanadi.

N.V.Pokrovskiy va T.N.Solyankolar lalmikor yerlar uchun yaratgan spravochnigida begona o'tlar va ularga qarshi kurashish ishlariga katta ahamiyat berib, lalmikor yerlarda keng tarqalgan begona o'tlarning biologik xususiyatlarini o'rganib, ularga qarshi kurashishning agrotexnologik va kimyoviy usullarini keltirgan. U.Allanazarova lalmikor yerda yetishtirilayotgan bug'doy dalalaridagi begona o'tlar bo'yicha fenologik kuzatuv ishlarini olib borib, begona o'tlarning qachon pishib yetilib urug' berishi va zararini aniqlashga erishgan. I.T.Vasilchenko va O.A.Pidottlar sug'oriladigan yerlarda keng tarqalgan begona o'tlarni aniqlagichni yaratgan. Ushbu aniqlagichda sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan ekinzorlarda 400 dan ko'proq begona o'tlar bo'lishi qayd etilgan. T.S.Zokirov va A.Ermatov ishlarida ham sug'oriladigan yerlarda begona o'tlar juda ko'p tarqalib,

ekinlarga katta zarar yetkazishligi ta'kidlanadi. Bir tup olabutada 100 ming donadan 700 ming donagacha urug' bo'ladi. Itqo'noq urug'i 25-30 yilgacha, qo'ypechak urug'i 50 yilgacha, sho'ra urug'i 60 yilgacha tuproqda saqlanib, hayvonlar organizmi orqali go'ng bilan yerga qaytib tushganda unuvchanligi tezlashadi. Boshqoli don ekinlari orasida 200 dan ortiq begona o'tlar uchrab, yorug'likni to'sib soya qilish, tuproqdagi suv va oziqa elementlarini o'zlashtirib, boshqoli don ekinlarini o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga katta zarar yetkazadi. Qashqadaryo viloyati sharoitida R.Toshtemirov ishlarida paxta dalalaridagi begona o'tlar o'rganilgan va ularga qarshi kurashish tadbirlari ishlab chiqilgan. Qarshi dashti sharoitida sho'ra 690 kg/ga quruq modda hosil qilishi uchun 19,8 kg/ga azot, 3,6 kg/ga fosfor o'zlashtirsa, g'o'za 170 kg/ga quruq modda hosil qilishi uchun 3,8 kg/ga azot, 1,2 kg/ga fosfor o'zlashtiradi.

Yuqorida qayd qilingan holatlar boshqoli don va boshqa ekinlarga juda ham katta zarar yetkazadigan begona o'tlarga qarshi kurashish dehqonchilikning asosiy tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Babushkin L.N. O'rta Osiyo paxta mintaqasining agroklimatik rayonlashtirilishi. .: «Gidrometeoizdat», 1968.-157-162 b.
2. Годунова К.Нормы высева зерновых культур.Москва,1964-523 с
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.М.:«Колос»,1985.-317 с.
4. Данилов Р. Борьба с засоренностью полей. Саранск, 1970.-86 с.
5. Генусов А. З., Горбунов Б.В., Кимберг Н. Ф. Почвенно-климатические районирование Узбекистана в сельскохозяйственных целях. Ташкент. Изд. УзАСХИ, 1960.
6. Кукушкин В.К. Фонин А.Д., Рачинский В.В. Транспорт и метаболизм хлорсульфурина в растениях при его поступления через листья. Известия Тимирязевской с/х академия. 1996.-7 с.
7. Алиев А.М. Комплексная борьба с сорняками. //Ж: «Земледелие», №5, 1985.-24-26 с.

8. Алиев А.М. Комплексная борьба с сорняками. //Ж: «Земледелие», №5, 1985.-24-26 с.

9. Алланазарова У. Фенологические наблюдения над сорняками в посевах пшеницы на богаре. Узбекский биологический журнал. 1967.-37-41 с.